Klasterlar – bu o'zaro bog'liq korxonalar, ta'lim va ilmiy muassasalar, logistika hamda xizmat ko'rsatish tuzilmalari faoliyatini birlashtiruvchi, hududiy-tashkiliy negizga ega bo'lgan tizim bo'lib, ular xomashyo yetishtirishdan tortib, tayyor mahsulotni bozorga chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarni qamrab oladi. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi sohasidagi barcha bo'g'inlar o'rtasida uzviy aloqalarni shakllantiradi, samaradorlikni oshiradi va barqaror rivojlanishni ta'minlaydi.

Shu boisdan, 2017-yildan boshlab mamlakatimizda qishloq xo'jaligida klaster tizimi joriy etilib, ushbu tizim xomashyoni yetishtirishdan tortib, uni qayta ishlash va tayyor mahsulotni ichki hamda tashqi bozorga chiqarishgacha bo'lgan bosqichlarni o'z ichiga olgan uzviy ishlash mexanizmi sifatida faoliyat yuritmoqda.

Bugungi kunda nafaqat qishloq xo'jaligida, balki turizm, ta'lim, tibbiyot, yuqori texnologiyalar va dori-darmon ishlab chiqarish kabi sohalarida ham klaster tizimi samarali natijalar berayotgani kuzatilmoqda.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan bu tizimning afzalliklari ko'p bor ta'kidlangan bo'lib, u ichki bozorni barqaror ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish, iqtisodiy samaradorlikni oshirish hamda eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishda muhim o'rin tutayotgani qayd etilgan. Ayniqsa, eksport hajmini oshirish maqsadida yangi bozorlarni izlab topish, xalqaro talabni muntazam o'rganish va ularga mos ravishda mahsulotlar ishlab chiqarish klaster tizimi samaradorligining asosiy sharti sifatida belgilanmoqda.

Ayni paytda, O'zbekistonda agroklastlarlarni tashkil etish va rivojlantirish jarayonlari mamlakat qishloq xo'jaligi va umumiy iqtisodiy taraqqiyotida muhim o'rin tutayotgani ham tahlillar orqali tasdiqlandi. Zamonaviy



raqamli iqtisodiyot sharoitida agroklasterning moliyaviy-iqtisodiy holatini baholash, ularning samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va ushbu omillarni ilmiy asosda boshqarish dolzarb vazifalardan sanaladi.

. Shu bois, agroklasterning faoliyatida ilmiy asoslangan, zamonaviy innovatsion yondashuvlarga tayanadigan, hududiy xususiyatlarni hisobga olgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurati tug'ilmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, klasterlar haqidagi nazariy qarashlar ilk bor XIX asrda nemis iqtisodchilari – logan Genrix fon Tyunen[11], V. Launxard[12] va A.Veber[13]lar tomonidan ilgari surilgan. Ular ishlab chiqarishning hududiy joylashuvi va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi bog'liqlikni ilmiy asosda izohlab, klasterlarning dastlabki nazariy poydevorini qo'ygan edilar.

Buyuk iqtisodchi Alfred Marshall o'zining mashhur "Iqtisodiyot prinsiplari" [1] nomli asarida klaster tushunchasini ilmiy mustahkam asosda yoritib, uning mohiyatini chuqur tahlil qilgan. U, xususan, shahar aglomeratsiyasi va sanoat hududlarining shakllanishida ishlab chiqarishning lokalizatsiya qilinishi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. Unga ko'ra, korxonalarning bir hududda joylashishi o'zaro hamkorlik va sog'lom raqobat muhitini yuzaga keltirib, ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli oshiradi. Mazkur nazariy yondashuv keyingi tadqiqotchilar tomonidan yanada rivojlantirildi. Masalan, Skoch Aleksandr[14] o'z ishlarida Marshall tomonidan asoslangan klasterlashuv g'oyalarini amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini o'rganib, turli sohalarida klaster modellarini qo'llash bo'yicha samarali loyihalar ishlab chiqdi. U klasterlarning amaliy mexanizmi, ishtirokchilar o'rtasidagi hamkorlik aloqalari va uning iqtisodiy foydasini ko'rsatib berdi. Shu bilan birga, A.I.Barabolina[15] o'z ilmiy izlanishlarida klasterning evolyutsion rivojlanish bosqichlarini aniqlab, uning shakllanishidan tortib barqaror iqtisodiy tizim sifatida faoliyat yuritishigacha bo'lgan jarayonni ilmiy asosda yoritib berdi. Ushbu qarashlar klasterlashuv jarayonining nazariy va amaliy jihatlarini to'liq qamrab olib, uning samarali boshqaruvi uchun mustahkam ilmiy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, Garvard Biznes Maktabining biznes boshqaruvi kafedrasini professori, iqtisodiy raqobatni o'rganish sohasida, jumladan, xalqaro bozorlardagi raqobat, mamlakatlar va mintaqalar o'rtasidagi raqobat masalalari bo'yicha yetuk mutaxassis sifatida tan olingan amerikalik iqtisodchi olim - Maykl Porterni klaster nazariyasiga yangi nafas bag'ishlagan olimlardan biri deyish mumkin.

U o'zining "Millatlar raqobatbardoshligi" [16] asarida klasterlarni iqtisodiy o'sish va innovatsiyalarning asosiy manbai sifatida ta'rifladi. Porterning tadqiqotlari shuni ko'rsatdiki, yirik va raqobatbardosh kompaniyalar ma'lum hududlarda to'planishga moyil bo'lib, bu esa ularga yuqori samaradorlik, innovatsiyaviy yechimlar va sifatli mehnat resurslaridan foydalanish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, B.Lundval[17] va B.Yonson[18] kabi mutaxassislar "rivojlanish bloklari" konsepsiyasini ilgari surib, klasterlarni nafaqat ishlab chiqarish birlashmalari sifatida, balki bilim, ta'lim va innovatsiya aloqalariga asoslangan milliy o'sish mexanizmi sifatida ham ta'riflashgan. Ular ta'kidlashicha, soha va hududlar darajasidagi doimiy o'zaro hamkorlik mamlakatning raqobatbardoshligini ta'minlaydi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, klasterlar innovatsiyalar uchun rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. Klasterlar tashkil etish muammolarining dolzarbligi - bu taraqqiyotning innovatsion turiga o'tish zarurati bilan bog'liqdir.

Shunday ekan, klasterlarning samarali faoliyati iqtisodiy o'sishga va hududiy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi. Qishloq xo'jaligida uzoq yillar davomida mulkchilik shakllari va boshqaruv mexanizmini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar amalga oshirildi. Agroklasterning O'zbekiston Respublikasida va uning tashqarisida qishloq xo'jaligini samarali rivojlantirishning eng yaxshi usuliga aylanmoqda.

Shuning uchun ham zamonaviy iqtisodiyotimizni yanada rivojlantirish maqsadida sohaning ilg'or olim va malakali tadqiqotchilari tomonidan mavjud holatlar chuqur tahlil etilib, nazariya va amaliyot uyg'unligida boy ilmiy tajribaga asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilmoqda. Bu jarayonda olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari iqtisodiyotimizning barqaror taraqqiyotiga muhim hissa qo'shmoqda. Masalan, I.S.Ochilov, O.R.Fayziyev, N.N.Boltayev, A.K.Ayimbetov, S.U.Xudoyqulov, T.L.Xoliqov, M.M.Qoraboyev, N.T.Qudbiyev, M.A.Bakayeva, H.N.Abdullayeva kabi olim va tadqiqotchilar yuqoridagi fikrimizning yaqqol dalili bo'lib xizmat qiladi. Ular tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar zamonaviy iqtisodiy islohotlarning nazariy asoslarini mustahkamlashga va amaliyotda samarali tatbiq etishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

I.S.Ochilovning ilmiy tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot sharoitida agroklasterning moliyaviy va iqtisodiy holatini tahlil qilishga katta e'tibor qaratilgan. U agroklasterni tashkil etishning samarali tamoyillarini va moliyaviy baholash ko'rsatkichlarini ishlab chiqib, agroklasterning moliyaviy faoliyatiga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik metodlar yordamida baholagan[9].

O.R. Fayziyev, N.N. Boltayev va A.K. Ayimbetovning tadqiqotlarida esa, agroklasterni tashkil etishning uslubiy yondashuvlari tahlil qilingan. Ular, O'zbekistonda yer va suv resurslarining cheklanganligini inobatga olib, agrar sohada yuqori samaradorlikka erishish uchun innovatsion yondashuvlar va klaster tizimini joriy



etish zarurligini ta'kidlaganlar. Shuningdek, klasterlarning huquqiy maqomi, tashkil etish tartibi va davlat bilan munosabatlarning aniq emasligini misollar bilan tahlil qilib, bu muammolarni hal qilish uchun davlat tomonidan maxsus qarorlar va strategiyalar ishlab chiqish zarurligini ko'rsatganlar[2, 3, 4, 7].

S.U. Xudoyqulovning tadqiqotlari klasterlarning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rni va ahamiyatiga oid keng qamrovli tahlillarni taqdim etadi. U klasterlarning turlari va ishlab chiqariladigan mahsulotlarning xilma-xilligiga alohida e'tibor qaratgan[10]. T.L. Xoliqovning tadqiqotlari esa O'zbekistonning paxta-to'qimachilik klasterlarining faoliyatini chuqur tahlil qilishga bag'ishlangan. Tadqiqotda paxta-to'qimachilik klasterlarining ishlash ko'rsatkichlarini 100 ballik baholash tizimidagi muammolar va metodologiyaning ayrim kamchiliklari ko'rsatilgan, bu esa klasterlar samaradorligini to'g'ri baholashga xalaqit berishi mumkin. Bunday kamchiliklarni bartaraf etish uchun muayyan tavsiyalar keltirilgan[8].

M.M. Qoraboyev va N.T. Qudbiyevlarning tadqiqotlarida esa klaster tizimini samarali ishlashini ta'minlash uchun qonunchilik va moliyaviy munosabatlarni rivojlantirish zarurligi ta'kidlangan[5]. Ular fermerlar va klasterlar o'rtasidagi manfaatlarining mushtarakligini ta'minlashga alohida e'tibor qaratganlar.

M.A. Bakayeva va H.N. Abdullayevalarning tadqiqotlari O'zbekistonda qishloq xo'jaligida ixtisoslashgan klasterlarni rivojlantirishning ahamiyatini urg'ulashga qaratilgan[6]. Ular, klaster tizimi, innovatsion texnologiyalar va islohotlar orqali hosildorlikni oshirishga alohida e'tibor qaratib, O'zbekiston agrosanoatining modernizatsiyasi va diversifikatsiyasi uchun klaster tizimining ahamiyatini ko'rsatganlar.

Shu tariqa, klaster nazariyasi – bu faqat iqtisodiy kategoriya emas, balki ijtimoiy, ta'lim, innovatsiya va hududiy rivojlanishni qamrab oluvchi kompleks yondashuv hisoblanadi. Bugungi kunda ushbu nazariya jahonning ko'plab davlatlarida amaliyotda qo'llanilib, barqaror rivojlanish va iqtisodiy taraqqiyotning muhim vositasiga aylangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tahlil jarayonida ma'lumotlar statistik guruhlash, qiyosiy va trendli tahlil usullari orqali aniqlangan. Maqolada iqtisodchi olimlarning klaster tizimiga bo'lgan nazariy qarashlari chuqur o'rganib, ularning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatiga qiyosiy tahlil asosida baho berilgan. Bu yondashuv iqtisodiy tendensiyalar va mantiqiy ishlanmalarni muvofiqlashtirishga imkon berdi, shuningdek, har bir g'oyaning haqiqiy holatga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashga yordam berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi global iqtisodiy sharoitda qishloq xo'jaligi tarmog'ini barqaror va samarali rivojlantirish – mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va aholi daromadlarini oshirishda hal qiluvchi omillardan biriga aylanmoqda. Bu borada klasterlashtirish tizimi – tarmoqda resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishdan tortib, qayta ishlash va sotuvgacha bo'lgan barcha bosqichlarni o'zaro uzviy bog'lash orqali yuqori qo'shilgan qiymat yaratish imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, klaster – bu faqatgina ishlab chiqaruvchilarning emas, balki butun qiymat zanjirining ishtirokchilarini – fermerlar, qayta ishlovchilar, logistika va moliya tashkilotlari, ilm-fan va ta'lim muassasalarini yagona tizimda birlashtiradigan platforma sifatida namoyon bo'ladi. Bu yondashuv qishloq xo'jaligida innovatsiya, raqobatbardoshlik, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Klasterlashtirish orqali esa, qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi asosiy masalalar quyidagilardan iboratdir:

- **Tarmoqlararo kooperatsiyani mustahkamlash:** fermer va tadbirkorlarni birlashtirish, ularni qayta ishlash korxonalari, savdo tuzilmalari bilan uzviy bog'lash.

- **Texnologik yangilanish:** ilmiy-tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, raqamli yechimlardan keng foydalanish.

- **Moliyaviy ta'minot masalalari:** klaster ishtirokchilarini imtiyozli kreditlar, sug'urta va davlat grantlari bilan qo'llab-quvvatlash.

- **Infratuzilmani rivojlantirish:** suv ta'minoti, transport, energiya va saqlash infratuzilmasini yaxshilash.

- **Kadrlar salohiyatini oshirish:** agrar ta'limni klaster talablariga moslashtirish va malaka oshirish tizimini takomillashtirish.

Bu masalalarni kompleks hal etish orqali nafaqat qishloq xo'jaligining ichki samaradorligi oshiriladi, balki eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish, mahalliy brendlarni shakllantirish va hududiy iqtisodiy o'sishni ta'minlash imkoniyati yaratiladi.

Shunday ekan, mamlakatimizda ham, agroklastarlar tizimini joriy etish va rivojlantirish bo'yicha oxirgi yillarda izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Buning yaqqol tasdig'i sifatida 2022–2023-yillar davomida klasterlar sonida kuzatilgan o'zgarishlarni keltirish mumkin (1-jadval).

1-jadval. Agrosanoat klasterlarining 2022–2023-yillardagi o'zgarishi dinamikasi, dona¹ [19, 20].

№	Agroklasterlarning yo'nalishi	Yillar		2023-yilda 2022-yilga nisbatan o'zgarishi	
		2022	2023	+/-	%
1	Paxta-to'qimachilik	134	153	+19	+14.2%
2	G'allachilik	200	126	-74	-37.0%
3	Meva-sabzavotchilik	249	136	-113	-45.4%
4	Sholichilik	41	41	0	0%
5	Dorivorchilik	8	8	0	0%
6	Chorvachilik	0	34	+34	---
7	Qorako'lchilik	0	46	+46	---
8	Parrandachilik	0	11	+11	---
9	Baliqchilik	0	38	+38	---
10	Pillachilik	0	76	+76	---
	Jami:	632	669	+37	+5.9%

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, paxta-to'qimachilik klasterlari soni 2022-yilda 134 tani tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 153 taga yetgan. Bu yo'nalishdagi o'sish 19 ta klasterga teng bo'lib, 14,2 foiz o'sishni anglatadi. Paxtachilik mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega sohalardan biri ekanligi uchun bu yo'nalishdagi rivojlanish tabiiy hol hisoblanadi.

G'allachilik klasterlarida esa aksincha, 2022-yilda 200 ta bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 126 tagacha qisqargan. Bu -74 ta yoki -37 foizlik keskin pasayishni anglatadi. Bu holat, ehtimol, ixtisoslashuv, rentabellik darajasi past bo'lgan hududlarda qayta tashkil etish yoki tugatish bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Meva-sabzavotchilik klasterlari 2022-yilda 249 ta bo'lgan bo'lsa, 2023-yilda 136 taga tushib qolgan. Bu ham -113 ta yoki -45,4 foizlik pasayishni tashkil etadi. Sabzavotchilik sohasida bozor sharoiti, logistika muammolari va tashqi talabning o'zgarishi kabi omillar bu o'zgarishga ta'sir ko'rsatgan bo'lishi mumkin.

Ayrim yo'nalishlarda esa barqarorlik kuzatiladi. Masalan, sholichilik (41 ta) va dorivorchilik (8 ta) klasterlari soni ikki yil davomida o'zgarmagan. Bu holat ushbu sohalardagi an'anaviylik va doimiy talab bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ajablanarlisi, 2022-yilda yo'q bo'lgan qator klaster turlari 2023-yilda faoliyat boshlagan. Xususan:

- Chorvachilik klasterlari – 34 ta
- Qorako'lchilik klasterlari – 46 ta
- Parrandachilik klasterlari – 11 ta
- Baliqchilik klasterlari – 38 ta
- Pillachilik klasterlari – 76 ta

Bu o'sishlar sohalardagi ehtiyoj, qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari va davlat tomonidan berilgan imtiyoz va qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali rag'batlantirilganini ko'rsatadi.

Umumiy holda, 2022-yilda 632 ta agroklaster faoliyat yuritgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 669 taga yetgan. Ya'ni, umumiy o'sish 37 ta yoki taxminan 5,9 foizni tashkil etgan. Klasterlar tarkibiy tuzilishida yuz bergan o'zgarishlar mamlakatda qishloq xo'jaligining diversifikatsiya qilinayotgani va yangi mahsulot yo'nalishlari asosida rivojlanishga urinishlar borligini ko'rsatadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlil va o'rganishlar asosida agroklasterlarning O'zbekistondagi rivojlanish jarayonida bir qator muammolar va imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatdi. Agroklasterlarning samaradorligini oshirish va ularni iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishda muhim vositaga aylantirish uchun quyidagi xulosa va takliflar berish mumkin:

1. Huquqiy-me'yoriy asoslarni takomillashtirish: Agroklasterlarni rivojlantirishda huquqiy-me'yoriy bazaning kuchaytirilishi muhim ahamiyatga ega. Fermerlar va klasterlar o'rtasidagi shaffof moliyaviy munosabatlarni tashkil etish uchun yangi qonunlar va normativ hujjatlar ishlab chiqilishi kerak. Shuningdek, klasterlar tashkil etishning uslubiy yondashuvlarini ishlab chiqish zarur.

2. Innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlarni joriy etish: Agroklasterlar samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalar va raqamli yechimlarning ahamiyati katta. Shu bilan birga, raqamli

¹ Manba: O'zbekiston qishloq xo'jaligi vazirligining yillik hisobotlari asosida ishlab chiqilgan hisob-kitoblar.



iqtisodiyotning imkoniyatlarini to'liq ishlatish va yangi texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin.

3. Hududiy ixtisoslashuvni hisobga olish: Agroklasterlar tashkil etishda hududiy xususiyatlarni inobatga olish kerak. Har bir hududning o'ziga xos resurslari va imkoniyatlari hisobga olinib, maxsus ixtisoslashgan agroklasterlar tashkil etilishi muhim.

4. Tashkilotlararo hamkorlikni kuchaytirish: Klaster ishtirokchilari, jumladan, fermerlar, qayta ishlash korxonalari va eksportyorlar o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Shuningdek, ta'lim va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qilish, klasterlarning innovatsion imkoniyatlarini kengaytirish imkonini beradi.

5. Davlat tomonidan ko'maklashish: Agroklasterlarni rivojlantirish uchun davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash zarur. Maxsus dasturlar, grantlar va subsidiyalar orqali fermerlarga va klasterlarga moliyaviy yordam ko'rsatish, shuningdek, ularning faoliyatini huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash kerak.

6. Tahlil va monitoring tizimini yaratish: Agroklasterlarning samaradorligini baholash va ularni doimiy ravishda monitoring qilish tizimini yaratish zarur. Bu tizim klasterlarning moliyaviy-iqtisodiy holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishga yordam beradi.

7. Tashqi bozorlar bilan aloqalarni kuchaytirish: Agroklasterlar eksport salohiyatini oshirish uchun yangi xalqaro bozorlarni izlab topish va ularga mos mahsulotlar ishlab chiqarish zarur. Bu, o'z navbatida, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Bundan tashqari, agroklasterlar tizimining rivojlanishi butun iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, shu jumladan qishloq xo'jaligi va sanoat o'rtasidagi integratsiyani kuchaytiradi, yangi ish o'rinlari yaratadi va mamlakatning raqobatbardoshligini oshiradi. Klasterlarni muvaffaqiyatli rivojlantirish orqali, O'zbekiston o'z qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilib, xalqaro bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alfred Marshall, Principles of Economics (8th ed.) [1890].
2. Fayziyev O.R., Boltayev N.N., Aytimbetov A.K. Agraklasterlar faoliyatini tashkil etishga uslubiy yondashuvlar // "Agrar tarmoq iqtisodiy salohiyatini oshirishda institutsional islohotlar va agroklasterlarni rivojlantirishning o'рни: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. TDAU. 2021. B. 289-293
3. Fayziyev O.R., Boltayev N.N., Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish bo'yicha xorijiy tajribalar va ularni respublikamizda qo'llash imkoniyatlari // "Agrar tarmoq iqtisodiy salohiyatini oshirishda institutsional islohotlar va agroklasterlarni rivojlantirishning o'рни: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. TDAU. 2021. B. 308-315
4. Fayziyev O.R., Boltayev N.N., Agromahsulotlar ishlab chiqarish tarmoqlarini rivojlantirishda klaster siyosati, ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalari // "Agrar tarmoq iqtisodiy salohiyatini oshirishda institutsional islohotlar va agroklasterlarni rivojlantirishning o'рни: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. TDAU. 2021. B. 323-329
5. Qorabayev M.M., Qudbiyev N.T. O'zbekistonda klaster tizimi: muammolar va yechimlar. "Актуальные научные исследования в современном мире" ISCIENCE.ИН.УА Выпуск 11(79) ч. 3. Переяслав. 2021. – 184-188.
6. Bakayeva M.A., Abdullayeva H.N. Qishloq xo'jaligida ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish holati va rivojlantirish istiqbollari. Qishloq xo'jaligida ixtisoslashgan klasterlarni shakllantirish: tajribalar, natijalar va innovatsion yondashuvlar. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Buxoro: "Sadridin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2021. –104-105 b.
7. Yunusov I., Sangirova U., Ahmedov U., Fayziev O., Kholiyrov U. Clustering of agriculture in the Republic of Uzbekistan. April 2023, E3S Web of Conferences 381, 02002 (2023) AQUACULTURE 2022.
8. Xoliqov T.L. O'zbekiston paxtachilik tarmog'i subyektlari faoliyatini klasterlashning raqobatbardoshligi va natijalari masalalari. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali 2024, 4(04), 434-438
9. Ochilov I.S., Globallashuv va iqlim o'zgarishi sharoitida agroklasterlar moliyaviy samaradorligi tahlilini takomillashtirish masalalari. "Globallashuv va iqlim o'zgarishi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash: muammo va yechimlar" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to'plami. 2024. B. 89-94 <https://doi.org/10.5281/zenodo.11402593>
10. Xudoyqulov S.U. O'zbekistonda klasterlarining turlari va ularni ro'yxatdan o'tkazish tartibi. Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali 2024, 4(09), 165-169.
11. https://www.britannica.com/biography/Johann-Heinrich-von-Thunen?utm_source
12. https://en.wikipedia.org/wiki/Wilhelm_Launhardt?utm_source
13. https://www.britannica.com/topic/Theory-of-the-Location-of-Industries?utm_source
14. Скоц, Александр. Международный опыт формирования кластеров. (Электронный ресурс)// Режим доступа. www.intelros.ru.
15. https://m-economy.ru/art_e.php?nArtId=1672
16. <https://www.library.hbs.edu/working-knowledge/porters-perspective-competing-in-the-global-economy>
17. <https://portal.research.lu.se/en/persons/bengt-%C3%A5ke-lundvall>
18. https://scholar.google.com/citations?hl=da&user=7IKb5nQAAAAJ&utm_source
19. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. <https://www.agro.uz/agroklasterlar-va-kooperatsiyalar/>
20. O'zbekiston xo'jaligi vazirligining yillik hisoboti Agriculture annual report 2023. <https://www.agro.uz/wp-content/uploads/2024/03/agriculture-annual-report-2023.pdf>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
